

XORAZM AHOLISI AN'ANAVIY XO'JALIGI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTIDA BALIQCHILIK

Baxtiyorova Oltinoy Baxtiyor qizi

Urganch davlat tibbiyot instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm vohasi aholisining an'anaviy xo'jaligi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida baliqchilikning tutgan o'rni tarixiy, arxeologik va etnografik manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda Kaltaminor madaniyati davridan boshlab Orolbo'yi va Amudaryoning quyi oqimida shakllangan "etnik-xo'jalik majmuasi" hamda "gidro-madaniyat"ning rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, arxeologik qazishmalar davomida aniqlangan baliq ovlash qurollari (garpunlar, to'rbotirgichlar, qarmoqlar), baliq turlari hamda aholining tabiiy-geografik o'zgarishlarga moslashuvi jarayonida shakllangan baliqni qayta ishlash va saqlashning an'anaviy usullari (“chakki”, “qaqildoq”, dudlash va tuzlash) ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Аннотация. *В данной статье на основе исторических, археологических и этнографических источников анализируется роль рыболовства в традиционном хозяйстве и социально-экономической жизни населения Хорезмского оазиса. В исследовании освещаются этапы развития «этно-хозяйственного комплекса» и «гидрокультуры», сформировавшихся в низовьях Амударьи и Приаралье начиная с периода Кельтеминарской культуры. Также научно обоснованы обнаруженные в ходе археологических раскопок орудия лова (гарпуны, каменные грузила, крючки), виды рыб, а также традиционные методы переработки и хранения рыбы («чакки», «какилдок», копчение, засолка), возникшие в процессе адаптации населения к природно-географическим изменениям.*

Abstract. *This article analyzes the role of fishing in the traditional economy and socio-economic life of the population of the Khorezm oasis based on historical, archaeological, and ethnographic sources. The study highlights the developmental stages of the "ethno-economic complex" and "hydro-culture" formed in the lower reaches of the Amu Darya and the Aral Sea region since the Kelteminar culture period. Furthermore, the paper provides a scientific substantiation of fishing tools (harpoons, stone sinkers, hooks) and fish species discovered during archaeological excavations, as well as traditional fish processing and preservation techniques ("chakki", "qaqildoq", smoking, and salting) developed through human adaptation to environmental and geographical changes.*

Kalit so'zlar. *Xorazm vohasi, Amudaryo deltasi, Kaltaminor madaniyati, baliqchilik, etnografiya, arxeologik topilmalar, garpun, gidro-madaniyat, "chakki", "qaqildoq", saqlash usullari.*

Ключевые слова. *Хорезмский оазис, дельта Амударьи, Кельтеминарская культура, рыболовство, этнография, археологические находки, гарпун, гидрокультура, «чакки», «какилдок», методы хранения.*

Keywords. *Khorezm oasis, Amu Darya delta, Kelteminar culture, fishing, ethnography, archaeological finds, harpoon, hydro-culture, "chakki", "qaqildoq", preservation methods.*

Kirish. Xorazm vohasi o‘zining geografik joylashuvi, ya’ni Amudaryoning quyi oqimi va Orol bo‘yi deltasida joylashganligi sababli, qadimdan nafaqat dehqonchilik, balki baliqchilik sivilizatsiyasining ham o‘chog‘i bo‘lib kelgan. Baliqchilik bu yerda shunchaki yordamchi xo‘jalik emas, balki aholining ijtimoiy tabaqalanishi, iqtisodiy barqarorligi va etnomadaniy qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biridir⁵.

Xorazmda baliqchilikning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yoritishda miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarga oid Kaltaminor madaniyati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, XAEE ma’lumotlariga hamda Tuyamo‘yun yodgorliklaridan aniqlangan topilmalar ko‘ra, Amudaryoning quyi oqimi va Orol bo‘yi hududlarida neolit davridayoq baliqchilik asosiy tirikchilik manbai bo‘lgan⁶. S.P.Tolstov ularning xo‘jaligini “o‘zlashtiruvchi xo‘jalik” ning yuqori bosqichi sifatida baholaydi⁷.

T.A. Jdanko o‘zining Xorazm vohasi va Orolbo‘yi xalqlariga bag‘ishlangan fundamental etnografik tadqiqotlarida baliqchilikni shunchaki qo‘shimcha mashg‘ulot emas, balki alohida "etnik-xo‘jalik majmuasi" sifatida asoslab berib, “Orolbo‘yidagi baliqchilik madaniyati, ya’ni Kaltaminor madaniyatining ildizlari neolit davri va bronza davriga borib taqaladi. Baliq ovlash qurollari hamda usullari esa asrlar davomida deyarli o‘zgarmasdan, an’anaviy ko‘rinishda saqlanib kelgan” – deya ta’kidlaydi⁸.

Ekspedisiya davomida Janubiy Orol bo‘yi manzilgohlaridan ko‘plab suyakdan yasalgan qarmoqlar, tosh to‘rbotirgichlar va baliq suyaklarining qoldiqlari topilgan. Arxeologik qazishmalar jarayonida aniqlangan hayvon qoldiqlarining ayrim manzilgohlarda 80 foizgacha bo‘lgan qismini baqrabaliq (osetr), laqqa (som), taran (vobla) va zog‘orabaliq (sazan) kabi turlarning suyaklari tashkil qiladi. Ayrim laqqa baliqlarining umurtqa pog‘onalari tahlili ularning uzunligi 2,5–3 orgacha yetganini ko‘rsatib, Xorazm hududida baliqchilik qadimdan aholi xo‘jaligi va oziqlanish tizimida muhim o‘rin tutganini tasdiqlaydi⁹. Manzilgohlarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bitta yirik baliq butun bir oilani bir necha kun davomida ozuqa bilan ta’minlay olgan. Tadqiq etilgan yirik turarjoylarda taxminan 100–120 kishi istiqomat qilgan bo‘lib, ularning markazida yagona “muqaddas” o‘choq, atrofida esa o‘nlab kichik oilaviy o‘choqlar joylashgan. Qazishmalar davomida birgina manzilgohning o‘zidan 50 dan ortiq suyakdan yasalgan garpun (sanchqi) uchlari topilgani aholining salmoqli qismi

⁵ А. Өтемисов. Карақалпақстан балықшылары. – Нөкис: Карақалпақстан, 1979. – Б. 5.

⁶ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С-40.

⁷ О‘sha sash o‘sha joyda

⁸ Жданко Т.А. Быт колхозников рыболовецких артелей на островах южного Арала / Советская этнография. 1961, №5. – С. 27-43.

⁹ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. -С-74–76.

baliqchilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi. Aholi iste'mol mahsulotlaridan baliqni asosan quritilgan va dudlangan holda qishgi zaxira uchun olib qo'ygan¹⁰. Manbalarda Jonbosqal'a 4 manzilgohidagi hayvon suyaklarining deyarli barchasi baliq qoldiqlaridan iboratligini, bu yerdagi o'choq qoldiqlari va suyak to'plamlari aholi oqsilli ozuqasining 90 foizdan ortig'i suv havzalaridan olinganini ta'kidlaydi. Shuningdek, qadimgi ovchilar makonlaridan topilgan to'r-toshlar (tosh og'irliklar) va yog'och qanchalar kabi arxeologik ashyolar Amudaryo bo'ylarida mil. avv. I ming yillikda ham baliq ovlash keng rivojlanganini ko'rsatadi. Olimlar Xorazm hududidagi qadimiy xo'jalik tizimlarini tavsiflar ekan, Amudaryo bo'yida yashagan dehqon va ovchilar bahorda daryo toshgan davrda juda ko'p baliq tutganliklarini, qadimgi Xorazm qishloqlarida baliqchilik dehqonchilik bilan bir qatorda asosiy oziq manbai bo'lganini va ayrim qabilalarda undan quritilgan taomlar tayyorlanganini qayd etadi. Qadimiy sug'orish tarmoqlaridagi baliqlar haqida yozarkan, S.P. Tolstov sug'orish kanallariga daryodan kirib kelgan baliqlarning ko'pligini, kanal bo'ylarida doimiy ov olib borilganini va suv yo'llarining kengligi baliqlar harakati uchun qulay bo'lganini ta'kidlaydi. Olim tomonidan fanga kiritilgan Kaltaminor madaniyati Xorazmda baliqchilikning "genetik" asosi hisoblanib, ushbu davr "Baliqchilar va ovchilarning oltin davri" deb ta'riflanadi¹¹. Kaltaminorliklarning 300–500 kv.m maydonga ega ulkan qamish kulbalari daryo va ko'l bo'ylarida joylashgan bo'lib, S.P. Tolstov ularni "suv bo'yi jamoalari" deb ataydi. Ushbu makonlardagi qazishmalarda topilgan suyaklarning 90% dan ortig'i asosan tishli laqqa, zog'orabaliq va cho'rtan baliqlariga tegishli bo'lib, bu holat aholining deyarli 100% baliqchilik hisobiga kun ko'rganini anglatadi. Ushbu davrga oid, yirik baliqlarni urib tutishga mo'ljallangan, ota nafis ishlangan bir necha tishli suyak garpun¹²larni topib o'rgangan¹³.

Asosiy qism. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan hududlarda, jumladan Tozabog'yob, Qal'aliqir, Katta Qirqqiz, Ko'hna Urganch va boshqa manzilgohlarda sudak, laqqa, eng ko'p miqdorda zog'orabaliq(sazan), delta hududlarida esa yirik baliq (osetr) suyaklari, to'rga bog'lanadigan tosh og'irliklar hamda yog'ochdan ishlangan baliq tutqichlar topilgani qayd etiladi. Xorazmning keyingi davrlardagi, xususan o'rta asrlardagi baliqchilik texnikasi va an'analari o'z ildizlari bilan bevosita Kaltaminor madaniyatiga borib taqaladi¹⁴.

Xorazm vohasida baliqchilik xo'jaligining rivojlanishi tabiiy-geografik muhitda yuz bergan o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Xususan, XVI asrga kelib Amudaryo o'zanining o'zgarishi natijasida vohaning suv tarmoqlari va suv havzalari tizimida muayyan o'zgarishlar yuzaga kelgan. Bu jarayon aholining baliqchilik bilan bog'liq xo'jalik faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatib, baliq ovlash, uni qayta ishlash va uzoq muddat saqlash usullarining moslashuviga olib kelgan. Shu nuqtayi nazardan, baliqni saqlash usullari nafaqat oziq-ovqatni asrash vositasi,

¹⁰ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. -С- С-63.

¹¹ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С- 40.

¹² Garpun (Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948.) — bu baliq yoki dengiz hayvonlarini ovlash uchun mo'ljallangan, uchi ilmoqli (tishli) bo'lgan nayzasimon ov qurolidir. Uning asosiy xususiyati shundaki, uchi hayvon tanasiga kirganda, ilmoqlari tufayli qaytib chiqib ketmaydi va o'ljani mahkam ushlab qoladigan qurol.

¹³ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. -С- 42

¹⁴ Толстов С.П. "По древним дельтам Окса и Яксрта" Moskva.1962. С-218

balki mahalliy aholining tabiiy muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvi va ko'p asrlik amaliy tajribasini aks ettiruvchi muhim etnografik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ana shunday an'anaviy usullar orasida baliqni quritib saqlash — "chakki" va "qaqildoq" usullari alohida o'rin egallaydi¹⁵.

Amudaryo deltasi bo'yidagi qadimgi qishloq xarobalarida quritilgan baliq suyaklari va tuzlash uchun mo'ljallangan idishlar topilgan. Bu hozirgi vaqtda ham ko'pchilik aholi sevib istemol qiladigan qoq baliq tayyorlash avvaldan mavjud ekanligini bildiradi. Bundan tashqari arxeologik izlanishlar natijasida qadimgi kanallar bo'yida baliq ovlashga oid izlar aniqlangan. Bu topilmalar Xorazmda baliqchilik mil. avv. I-ming yillikdan boshlab rivojlangan ekanligini, qolaversa aholi baliqni nafaqat ovlagan, balki qayta ishlagan, ya'ni quritish, dudlash, tuzlash ekanligini bildiradi. Y.G'ulomov o'zining "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida Amudaryo havzasini biologik resurslarga boy hudud sifatida ta'riflab, daryo bo'yi aholisi, xususan, qadimgi massagetlar va keyinchalik o'rta asr dehqonlari uchun baliqchilik nafaqat yordamchi xo'jalik, balki tirikchilikning strategik muhim tarmog'i bo'lganini ta'kidlaydi¹⁶.

Xulosa. Xorazm vohasining tabiiy-geografik joylashuvi, xususan Amudaryo deltasi va Orol dengizi havzasi bilan bog'liqligi, mintaqada o'ziga xos "Gidro-madaniyat", ya'ni suv bilan bog'liq turmush tarzi shakllanishiga asos bo'lgan. Olib borilgan tarixiy, arxeologik va etnografik tahlillar quyidagi muhim ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

¹⁵ Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиши тарихи. – Тошкент: ЎзССР ФА, 1959. – Б. В-17-49.

¹⁶ Ўша асар. Ўша жой.